



XALQ DEPUTATLARI NAVBAHOR TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

Navbahor tumani mahalliy budjetining 2025-yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag'lar yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan, tuman mahalliy budjetning **2025-yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag'lar** yo'naltirish to'g'risida, tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi komissiya takliflarini ko'rib chiqib hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 6-fevraldagi 01-12-230/20-01-38/41-sonli xatini inobatga olgan holda, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 6-fevraldagi 01-12-230/20-01-38/41-sonli xatini inobatga olgan holda Navbahor tumani mahalliy budjetining **2025-yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan** ilovada ko'rsatilgan budjet tashkilotiga amaldagi budjet tasnifiga rioya qilgan holda mablag'larni ajratilishini ta'minlasin

2. Mablag' ajratilgan budjet tashkiloti rahbari ushbu mablag'larni maqsadli sarflanishini ta'minlasin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi, tuman G'aznachilik xizmati bo'limi Navbahor tumani mahalliy budjetining **2025-yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan** ajratilgan mablag'larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari M.Jumaboyev zimmasiga yuklatilsin.

Navbahor tumani mahalliy budjetining 2025 yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

ming so‘mda				
T/r	Tashkilot nomi	Ajratiladigan mablag‘	Maqsadi	Asos
1	Tuman hokimligiga	44 822,0	Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining 9-bayoniga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichi madaniyat sohasi yo‘nalishlarida tuman hokimi tavsiyasiga asosan sirtqi ta’lim shakliga bazaviy to‘lov kontrakt asosida qabul qilinib, tahsil olayotgan 5 nafar talabalarning 2024/2025-o‘quv yili uchun kontrakt to‘lovi uchun	<i>O‘zbekiston Respubdikasi Prezidentining 25.12.2020 yilda mamlakat yoshlari bilan videoselektor tarzida o‘tkazilgan Yoshlar forumining 100-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyat rahbarining 29.06.2024-yildagi 27/20-30-sonli topshirig‘i</i>
JAMI		44 822,0	X	X